

**YOSHLAR TA'LIM-TARBIYASIDA MADANIY MEROSDAN FOYDALANISH
IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH**

Jumaniyazova Nasiba Saparbayevna

f.d. PhD, Toshkent davlat transpord universiteti

Nazarova Nilufar Jo'rayevna

katta o'qituvchi, Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya: *Maqolada o'zbek moddiy va ma'naviy merosimizni boyligi, ularni o'rganib, o'zlashtirish, ularni ma'naviy taraqqiyotimizdagi o'rnini teran anglab yetish muhim o'rin tutishi tahlil etiladi. Bugungi kunda yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash, ularda yuksak ma'naviyat, intellektual salohiyat va milliy g'ururi shakllantirish ta'lim-tarbiya tizimining asosiy vazifasi ekanligi yoritilgan. Milliy qadriyatni rivojlantirishda madaniy merosning omillari keltiriladi.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim-tarbiya, madaniy meros, milliy ruh, yuksak badiiy mahorat, milliy taraqqiyot.*

O'zbek etnomadaniy merosida xalqimizning o'zligini anglash va asrashga bo'lgan intilishlari izchil tasvirlangan. Bu, eng avvalo, Vatan va xalq ozodligi uchun kurashlar tasvirlangan xalq ijodi va san'ati asarlarida namoyon bo'ladi. "Alpomish", "Qirq qiz", "Go'ro'g'li", "Yodgorxon", "Rustamxon" kabi xalq dostonlaridagi bosh qahramonlar vatanparvarlik tuyg'usini qalbiga singdirgan obrazlardir. "Xalqimizning qadimiy tasavvurlariga ko'ra, o'q-yoy – hokimiyat nishoni hisoblangan. Alpomish yetti yoshida o'n to'rt botmon birichdan – bronzadan yasalgan yoydan o'q otib, "alp" degan unvonga ega bo'ladi. Alp degani – hokimiyat egasi ekanini inobatga olsak, bu doston ko'p asrlik milliy davlatchiligimizning badiiy ifodasi ekaniga ishonch hosil qilamiz" [14. B.124-126].

Bugungi kunda yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash, ularda yuksak ma'naviyat, intellektual salohiyat va milliy g'ururi shakllantirish ta'lim-tarbiya tizimining asosiy vazifasidir. Shu o'rinda Forobiy: "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin"ligi ta'kidlaydi [10. B. 186].

Ushbu vazifani to'la ro'yobga chiqishida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy moddiy va ma'naviy merosni o'rganib, o'zlashtirish, ularni ma'naviy taraqqiyotimizdagi o'rnini teran anglab etish muhim o'rin tutadi. Shunga ko'ra, hozirgi sharoitda milliy qadriyatlarimizni rivojlantirishda madaniy merosning o'rnini quyidagi omillar bilan belgilanadi.

1. Xalqimizning haqqoniy tarixi, boy madaniy merosi va milliy ma'naviy qadriyatlari hamda mustaqillik yillari ularni tiklab, rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarning mazmuni va ahamiyatini chuqur anglash.

2. Respublikamiz ta'lim-tarbiya tizimida yaratilgan keng imkoniyatlar va hozirgi davr talablaridan kelib chiqib [1; 2; 3; 4; 5; 6; 7; 9; 11; 16; 17; 18; 19], tarixiy meros bilan bog'liq jihatlarni o'qitishning zamonaviy uslub-vositalarini yaratish va ulardan samarali foydalanish.

3. Ta'lim-tarbiyada madaniy merosdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va bu boradagi ishlarni milliy taraqqiyot manfaatlari asosida uzluksiz rivojlantirib borish.

Bu omillarning mazmuni va ahamiyati madaniy merosdan milliy tarbiyada qanday foydalanish mumkin, degan masalalar bilan bog'liq.

Madaniy meros - har bir xalqning ajdodlari tomonidan yaratilib, avlodlari hayotida yanada rivojlanib boruvchi moddiy va ma'naviy boyliklar majmuidir. "Har bir davr va avlod o'ziga xos madaniy meros yaratadi. Madaniy merosga qarab davr va avlodlar haqida hukm chiqariladi. Madaniy meros qanday bo'lsa, davr va avlodlar ham shunday" [13. B. 102] bo'ladi. Shu bois madaniy merosning inson, millat, jamiyat hayotidagi o'rni, ahamiyati va qadri, ularga nisbatan munosabatlar bilan bog'liq bo'lib, bu meros har bir avlod tomonidan rivojlantirilib, boyitib borilsa, millatning kelgusi taraqqiyoti yuksalib borishi; unutilib yoki yo'q qilib yuborilsa, milliy madaniyat, binobarin millat ham barham topishi mumkin. Shu o'rinda, yana bir tushuncha "Xalq madaniyati"ning ahamiyatini ham e'tiof qilish joiz. "Xalq madaniyati, birinchidan, ma'lum bir hudud (joy) aholisining madaniyati, ikkinchidan, mehnatkash xalq, omma madaniyati, uchinchidan, aniq bir etnos madaniyatidir... Keng ma'noda, xalqning g'oyaviy pozitsiyalarini, orzu-umidlarini, ichki dunyosini ifoda etgan omma, shuningdek, professionallar tomonidan yaratilgan barcha madaniyatni xalq madaniyati deyish mumkin" [12. B.22-23]. Endilikda ulug' ajdodlarimiz yaratib qoldirgan g'oyat boy va rang-barang moddiy hamda ma'naviy meroslar tiklanib, xalqimiz hayotiga yangi mazmun baxsh etmoqda. Xususan:

- xalqimizning o'tmish hayoti, milliy ongi, madaniyati va tafakkuri aks etgan "Avesto", "O'rxun-Yenisey bitiklari", "Qutadg'i bilig", "Devonu-lug'atit turk", "Hibbatul haqoyiq", "Devoni hikmat", "Temur tuzuklari", Alisher Navoiyning 10 jildlik to'la asarlari to'plami, "Boburnoma", "Turkiy guliston yoxud axloq" singari ma'naviy merosimizning ko'plab durdonalari, "Alpomish", "Guro'g'li", "Ravshan", "Avazxon" kabi 100 jildga joylangan dostonlar hamda turli ertaklar, maqollar, matallar, latifa, qiziqchilik asarlaridan iborat xalq og'zaki va yozma ijodiyotining yuksak namunalari;

- o'z davrlarida barcha ilm sohalarini beqiyos rivojlantirib, jahon ilm-fani, madaniyati va tafakkuri taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Imom Moturidiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Burxoniddin Marg'inoniy, Bahovuddin

Naqshband, Mirzo Ulugʻbek, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Abdulla Qodiriy va boshqa buyuk allomalarimiz yaratgan boy ilmiy, falsafiy meros;

- ajdodlarimizning yuksak badiiy mahoratlari bilan yaratilgan hunarmandchilik, amaliy va tasviriy sanʼat, raqslar, kuy-qoʻshiqlar, teran milliy urf-odat, anʼanalar;

- oʻz hayotlarini yurt ozodligi va farovonligi uchun koʻrashga bagʻishlagan Shiroq, Spitamen, Muqanna, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Mahmud Tarobiy, Manguberdi, Amir Temur, Dukchi Eshon, Nomoz botir kabi milliy qahramonlarimiz haqidagi asl haqiqatlar;

- dunyo meʼmorchilik sanʼatining oʻziga xos yuksak koʻrinishini aks ettirgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz, Toshkent, Fargʻona vodiysi va boshqa hududlardagi noyob tarixiy yodgorliklar, yangidan bunyod etilayotgan xotira obidalari hamda moddiy madaniyatimizning yana koʻplab nodir namunalari qayta tiklanib, yangi bosqichlarda rivojlanmoqda. Ular biz uchun faqat oʻtmishdan qolgan yodgorliklarga emas, balki ajdodlarimizning mehnati, aql-idroki va tafakkoʻrining ulkan yutugʻi, bebaho boyligimiz, maʼnaviyatimiz shakllanishining bitmas manbai hamdir.

Xulosa qilib aytganda, “Oʻzbek xalqi etnomadaniyatini tadqiq etgan ilmiy-nazariy konsepsiyalar rang-barang boʻlib, ularda xalqimiz madaniyati va ijodi sotsiodinamik rivojlanishda, millatimiz etnegenezi bilan uygʻunlikda qaraladi. Ijtimoiy-tarixiy va madaniy rivojlanish jarayonida xoʻjalik madaniy tiplar, boshqa xalqlar bilan integratsiyaga kirishib yashash, innovatsiyaga moyillik xalqimiz etnomadaniyatining umumiy xususiyatlariga aylanib” [15. B. 71] borishini taʼminlash zarur.

REFERENCES:

1. Gafarovna, A. S., Joʻrayevna, N. N., Sobirovna, A. N., & Abdusalamovna, A. S. (2023). YOSHLAR MADANIY BEGONALASHUVINING OLDINI OLISHDA IJTIMOIIY ISH VA SANʼATNING OʻZARO HAMKORLIGI. *World scientific research journal*, 12(2), 100-104.

2. Ismoil oʻgʻli, A. A., Abdumannapovna, M. D., & Joʻrayevna, N. N. (2023). OLIY TAʼLIM MUASSASALARIDA MALAKALI KADRLARNI TAYYORLASHDA TAʼLIM SIFATINI OSHIRISH SAMARADORLIGI. *PEDAGOG*, 1(5), 610-614.

3. Jumaniyazova, N. ., & Nazarova, N. . (2023). Reforms Implemented in the Higher Education System of the New Uzbekistan: Status and Prospects. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 4(4), 140–146. Retrieved from <https://www.globalresearchnetwork.us/index.php/ajshr/article/view/2171>

4. Juraevna, N. N. (2022). Qualities Of Youth Competitiveness (Sociological Aspect). *International Journal of Academic Pedagogical Research (IJAPR)*, 6(3), 14-20.

5. RAMATOV, J., BARATOV, R., NAZAROVA, N., ERNIYOZOV, U., KHASANOV, M., & VALIEV, L. THE VIEWS AUROBINDO GHOSH OF THE INFLUENCE ANCIENT RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL IDEAS IN

INDIA. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО "Институт управления и социально-экономического развития", (12), 61-64.

6. RAMATOV, J., BARATOV, R., NAZAROVA, N., KHASANOV, M., & ERNIYOZOV, U. PATRIOTISM IS A STRONG PILLAR OF NATIONAL EDUCATION. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО "Институт управления и социально-экономического развития", (12), 70-73.

7. RAMATOV, J., SULTANOV, S., NAZAROVA, N., KHASANOV, M., & VALIEV, L. THE PLACE AND ROLE OF WOMEN IN THE RAILWAY TRANSPORT SYSTEM OF UZBEKISTAN. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО "Институт управления и социально-экономического развития", (12), 49-52.

8. Saminjon o'g'li, M. S., & Jo'rayevna, N. N. (2022). PEDAGOGIK FAOLIYATDA AXBOROT-KOMMUNIKATIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. *PEDAGOG*, 1(4), 105-108.

9. Shomansur o'g'li, S. S., Abdumannapovna, M. D., & Jo'rayevna, N. N. (2023). TARAQQIYOTNI TA'MINLASHDA TA'LIMNING O'RNI. *PEDAGOG*, 1(5), 619-622.

10. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. – Т.: А. Қодирий номидаги халқ меъроси нашриёти, 1993.

11. Abdinazarovich, R. D., Abdullajonovna, Y. K., Ahadjanovich, Q. A., Bakhromovich, G. A., & Juraevna, N. N. (2020). The role of social service in the protection of human interests. *Journal of Critical Reviews*, 7(6), 1263-1267.

12. Карабаев У. Этнокультура (Традиционная народная культура). – Ташкент: Шарк, 2005. -22-23

13. Мустақиллик изохли илмий-оммабор луғат. –Т.: Шарқ, 1998.-Б.102.

14. Нишанова, О. Д. (2015). HUMAN ORIGINS AND NATIONAL FEATURES OF THE UZBEK ETHNIC CULTURE. *Theoretical & Applied Science*, (9), 124-126.

15. Нишанова, О. Д. (2021). О 'ЗБЕК ETNOMADANIYATI GENEZISINING ILMIY TANLILI. ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ, (3 (14)).

16. РАМАТОВ, Д., СУЛТАНОВ, С., НАЗАРОВА, Н., ЭРНИЯЗОВ, У., ХАСАНОВ, М., & ВАЛИЕВ, Л. ПРАГМАТИЗМ ПРОТИВ ФИЛОСОФИИ ОБЩЕСТВА.

17. САМАРОВ, Р. С. ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТ ВА АМАЛИЁТ: ИНТЕГРАТИВ ЁНДАШУВНИНГ НАЗАРИЙ БАЁНИ. *PSIXOLOGIYA* Учредители: Бухарский государственный университет, (3), 10-15.

18. Самаров, Р. (2017). Инсон камолотини таъминлашда адабиёт: структуравийфункционал жиҳат. *Ўзбекистонда хорижий тиллар. Илмий–методик электрон журнал*, (1), 15.

19. ЮНУСОВА, Н., НАЗАРОВА, Н., & ЖУМАНИЯЗОВА, Н. СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН). *СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН)* Учредители: Общество с ограниченной ответственностью " Центр инновационных технологий", (6), 9-16.